

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI ....	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO’NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ..... 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN  
VILOYATI TAHLILIDA)..... 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*

IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE  
AGRICULTURE OF UZBEKISTAN..... 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING  
XUSUSIYATLARI ..... 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*

INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY  
JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI ..... 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI  
OSHIRISHNING AHAMIYATI ..... 234-243

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*

SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY  
VAZIYATLARNING TA'SIRI ..... 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*

XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI  
VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI..... 249-254

*Saburov Jaloliddin*

XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY  
HAYOT RIVOJI ..... 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA  
MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*

FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ..... 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*

MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH  
MEVALAR MASALASI ..... 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*

ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND  
PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE  
YOUNG GENERATION ..... 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*

TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 283-287



**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Рузметов Хайрулла*

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ  
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ  
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410

*Abdubannayev Umidjon*

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА  
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА  
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ  
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA  
QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ..... 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ  
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ  
АСПЕКТЫ ..... 452-462

*Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xusanova Mohira*

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL ..... 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODEL ..... 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **EDUCATION OF PERFECT PERSON IN THE TEACHING OF NAJMIDDIN KUBRO AND THE INTERESTING CHARACTERISTICS OF IDEAS REGARDING HIS MORAL AND SPIRITUAL**

**Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich**

"Ma'mun University" NTM, senior teacher of philosophy department

E-mail: [jabborov1974@gmail.com](mailto:jabborov1974@gmail.com)

**Abstract.** In this article, it is analyzed that the Kubrovian doctrine, founded by Sheikh Najmiddin Kubro, serves as a scientific and theoretical basis for the formation of the worldview of today's youth of New Uzbekistan. According to Kubroviya's teachings, the tax collector must cultivate and perfect his soul in order to observe the closeness to the Truth. This career is called "Perfect Man" or "Perfect Man" in Sufism. A perfect person is a pole around which the whole universe revolves. Ever since creation, the Perfect Man has been revealed to have a unique reality. Najmuddin Kubro developed unique scientific-philosophical, moral-spiritual methods of educating murid. Even today, these methods occupy an important place in raising a mature generation and protecting young people from the onslaught of popular culture.

**Key words:** Kubrovian teaching, "Perfect Man", scientific-philosophical, moral-spiritual education, Sufism. the young generation, respect for man, the glory of knowledge and science.

## **NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich**

Ma'mun universiteti" NTM, falsafa kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shayx Najmiddin Kubro asos solgan kubroviya ta'limoti bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari dunyoqarashini shakllanishida ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi tahlil etilgan. Kubroviya ta'limotiga ko'ra, solik Haqqa yaqinlikni mushohada etishi uchun nafsni tarbiyalab, kamolotga yetkazishi lozim bo'ladi. Bu martaba tasavvuf ta'limotida "Insoni komil" yoki "Komil inson" tushunchasi bilan ataladi. Komil inson – atrofida butun borliq olami aylanayotgan bir qutbdır. Borliq yaratilgandan beri Komil inson bordır va uning o'ziga xos haqiqati borligi ochib berilgan. Najmiddin Kubro murid tarbiyalashning o'ziga xos ilmiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy usullarini ishlab chiqdi. Ushbu uslublar bugungi kunimizda ham barkamol avlodni tarbiyalashda hamda yoshlarni ommaviy madaniyat xurujidan himoyalashda muhim o'rinni egallaydi.

**Kalit so'zlar:** Kubroviya ta'limoti, "Komil inson", ilmiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy tarbiya, Tasavvuf, yosh avlod, insonga hurmat, ilm va ilmning ulug'vorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N36>

**Kirish.** Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, xalqimiz an'anaviy madaniyati, buyuk ajdodlarimiz Imom Ismoil Buxoriy, Abu Mansur Moturudiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Shayx Najmiddin Kubro, Naqshbandiy, Xoja Ahror Vali, Mahdumi A'zam singari buyuk

allomalarimiz ilmiy-ma'naviy merosi, falsafiy g'oyalarini tadqiq etish hamda ularga ilmiy jihatdan yondashish tubdan yaxshilandi. Shu jumladan, "Kubroviya" ta'limotining asoschisi, ko'plab asarlar muallifi Najmiddin Kubroning hali o'rganilmagan bir qancha asarlari arab va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limotining yirik vakili, kubroviya tariqatining asoschisi Shayx Najmiddin Kubroning falsafa va ilm-fan olamida tutgan o'rni beqiyosdir.

Kubroviya falsafasida eng muhim masalalaridan biri bu inson va uning kamoloti mavzusi hisoblanganligi tufayli u bugungi kunda ham o'rganilmoqda, tadqiq etilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tasavvufda komil inson bu oddiy insonlardan ancha yuksak turuvchi, kamolot bosqichlarini egallagan payg'ambar, valiy, oshiq, ya'ni ruhan Tangri taolo bilan birlashishga qodir, tavhid ahli bo'lgan zotdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Komil inson mavzusida mustaqil asar yozgan Abdulkarim Jiliy bu masalani batafsil yoritishga uringan. Uningcha, komil inson atrofida butun borliq olami aylanayotgan bir qutbdir. Borliq yaratilgandan beri komil inson birdir va uning o'ziga xos haqiqati bordir. Asl ismi Muhammad bo'lib, har asrda boshqa suratda va boshqacha nomlar bilan ko'rinadi. Dunyo yaratilgandan beri har xil payg'ambarlar shaklida ko'ringan ham komil insondir. Qiyomatga qadar eng ulug' valiy (qutb) ham udir. Mutafakkir Jiliyning bu izohidan "insoni komil" - "Haqiqati Muhammadiya" bilan aynan bir ekanligi kelib chiqmoqda. Shunday ekan, mutasavviflar "insoni komil" deganlari Muhammad (s.a.v.) ning haqiqatini namoyon etgan kishilardir [1.71-78].

Bugungi kunda yurtimizda ulug' ajdodlarimizga ehtirom ko'rsatish, ulardan har jihatdan saboq olishga qaratilgan oqilona siyosat olib borilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bu sohada qilayotgan ishlarimizdan maqsad – islomga e'tiqodimizni, alloma bobolarimizga hurmatimizni ilm bilan bildirish. Ajdodlarimizga munosib bo'lish biz uchun juda katta burchdir"[2]. Chunonchi, Najmiddin Kubro kabi falsafiy tafakkur tarixida e'tirofga sazovor bo'lgan, allomalar hayoti va ilmiy ijodini tadqiq etish hamda keng jamoatchilikka targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Muhokama.** Jiliyning yozishicha, "Muhammad (s.a.v.) har xil suratda ko'rinish qudratiga ega. Har zamon insonlarning eng komili suratiga kirib, ularning sha'nini yuksaltiradi. Suratiga kirgan kishilar zohiran uning xalifalari, botinan esa – U, ularning haqiqatidir"[1.78]. Demak, insoniyatning sharaflanishining boisi, uning orasidan payg'ambarlar, siddiqlar, valiy zotlar hamda solih kishilar, ya'ni bir so'z bilan aytganda komil insonlarning majudligi sababidandir.

Alloh va olamning porlab turishi, fano bo'lish, orif shaxsining Tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar tasavvuf falsafasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so'fiylar, deb atalganlar va "sufizm" atamasi shundan paydo bo'lgan. Ilk so'fiylar aholining kambag'al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan [3.38], deya ta'kidlaydi islomshunos olim Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.

Demak, tasavvuf ta'limotining kelib chiqishi hamda uning mohiyatiga oid fikrlar xilma-xildir. Shunday bo'lishiga qaramay, Islom tasavvufi Qur'oni karim va hadisi shariflar bilan oziqlangan, o'tmishda yashab o'tgan ulug' sahobalar, salifi solihinlar hayoti hamda faoliyatlari bilan boyitilgan.

Darhaqiqat, tasavvuf ham ruhan ham ma'nan poklanish ilmidir. Tasavvuf insonni komillikka yuksaltiruvchi, uni dunyo va oxirat saodatlariga erishuvida vosita bo'luvchi ma'rifat, ilmdir. Tasavvuf yolg'iz o'zining manfaatini o'ylash emas, balki xalq manfaati uchun yashamoqdir. Tasavvuf ahli islom mohiyati, ma'rifati, Qur'on, hadis, fiqh, aqoid hamda tafsir

ilmlarini chuqur egallagan va buni el orasida jiddu-jahd bilan yoyishga harakat qilib kelgan kishilar edilar. Faqatgina suhbatlari yoki soʻzlari, daʼvatlari bilangina emas, balki benazir xulq-atvorlari, hayot va faoliyatlari bilan ham jamiyatga ijobiy taʼsir koʻrsatardilar. Ulugʻ mutasavvif shayxlar avvalo dunyoviy ilmlar, yaʼni shariat ilmlarini puxta egallaganliklari bilan alohida hurmatga sazovor boʻlganlar. Negaki, tasavvuf taʼlimotida shariat ilmlarini bilmasdan hamda unga amal qilmasdan turib, tariqat va maʼrifat bosqichlariga yuksalish amrimahol boʻlgan bir ishdir [4.4], degan qarash mavjud.

Jumladan, ahli tasavvuf orif soʻfiylar donishmand, ilmu-hikmat hamda fazilat sohibi, komillik kasb etgan insonlar boʻlganlar. Vaholanki, orif aslida – ilohiy, irfoniy ilmlar egasidir. Oddiy soʻfiy kishidan koʻra u ahli donishga yaqinligi bilan farqlanib turgan. Orif zotning qalbi ilohiy nur – ilmu hikmat konidir, deganlar. Bunday ilm Tangri taolo sifatlarini anglash bilan egallab boriladi, chunki Uning sifatlarini tanimay, Zotini bilish mumkin emas [5.278]. Demak, olim zohiriy, dunyoviy ilmlar egasi boʻlsa, orif tasavvufda oriflik darajasiga chiqqan ilohiyot ilmlari sohibidir.

Maʼlumki, kubroviylik taʼlimotida qalb, rux, aql va nafs tarbiyasi yetakchi oʻrin egallaganligi uchun ham mazkur tariqat bugungi kunda yoshlarni ommaviy madaniyat hurujidan himoyalashda ham muhim oʻrinni egallaydi. Tasavvufda qalb, rux, aql va nafs kabi soʻzlarning maʼnolarini chuqur anglash alohida ahamiyatga ega. Ularning har biriga xos boʻlgan haqiqatni anglab yetish va bir-biridan farqlashga talaba-yoshlarni oʻrgatish zarur. Tasavvuf nuqtai nazaridan ular quyidagicha tavsifga ega. Chunki, bugungi kunda yoshlarni ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik ruxida tarbiyalashda mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglatish nihoyatda zarurdir.

**Natijalar.** Kubroviya tariqatining asosiy vazifasi komil insonni tarbiyalashdan iborat boʻlib, Shayx Kubroning hayoti bu borada bir katta saboq, ulkan maktabdir. Ushbu tariqatda sadoqat, talab, ishq, muhabbat, oshiqlik maqomining inson zoti uchun naqadar shart va zarur ekanligi hamma maʼlumdir.

Soʻfiylar haqiqatni idrok etish uchun “Maʼrifat” sohibi boʻlishlari lozim, deb taʼkidlaydilar. “Maʼrifat” esa – Haqqal yaqin (Mutloq haqiqat) turidagi ilmdir. Najmiddin Kubro maʼrifat oʻzi bilan muhabbatni olib kelishini, yaʼni muhabbat maʼrifatga asoslanishini taʼkidlaydi. Qalbdan ishq hosil boʻlishi uchun u albatta, sevgilisi haqida bilimga ega boʻlishi lozim. Bilmay turib sevmok mumkin boʻlmagan ishdir.

Mutasavviflar fikricha, botin ilmi sohiblari gʻayb (kelajakda boʻladigan ishlar)dan xabardor boʻladilar. Bu esa ularning oʻzlaridagi bashariy sifatlarini kechib oʻtib, Haqqning sifatlariga erishganlari tufaylidir. Shu bois ularning gʻaybdan xabardor boʻlishi “Gʻaybni Allohdan boshqa hech kim bilmaydi” asosiga zid emas. Chunki ular Haqqning koʻzi bilan koʻradilar. Uning ilmi bilan biladilar. Uning koʻzi bilan qaraganliklari bois uzoqlik va yaqinlik ular uchun bir xil boʻladi, moddiy toʻsiqlar oʻrtadan koʻtariladi. Chunonchi Muhammad (s.a.v.) muborak hadislarida: “Moʻminning farosatidan qoʻrqingiz, chunki u Allohning nuri bilan qaraydi” deganlar. Ammo bu kishilarning gʻaybga oid ilmlari cheklangan boʻlib, Alloh ularga nimani bildirsa, shuni biladilar. Bu ular uchun Allohning bir lutfi boʻlib, oʻzlari egallagan sifat emas [6.183-185].

Darhaqiqat, Najmiddin Kubroning kuffor (dinsiz, kofir) moʻgʻullarning yurtga hamla qilishini oldindan bilishi va xonaqosida taʼlim olayotgan muridlarning oʻz vatanlariga zudlik bilan chiqarib yuborishi Haq taoloning oʻz valiysiga bergan karomatlaridan biridir.

Tasavvufiy ilmlarda komil insonni ham ruhan va ham aqlan shakllantirish, uni kamolot cho‘qqisiga yetkazish nazariyasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko‘ra: “Insonni Xudo o‘ziga o‘hshatib yaratganmi, Allohning bu olamni paydo qilishdan ko‘zlagan bosh maqsadi ham, aslida, inson ekanmi, demak inson Allohning bu muruvvatiga shukronalar aytib, o‘zini batamom Allohga bag‘ishlashi, buning uchun esa o‘ziga loyiq darajada poklashi – kamolga yetkazishi kerak. Ana shunday o‘zini oliy maqsadga chog‘lagan, jismini unutib, ruhini Allohga qay darajada o‘stirgan, yetarli darajada poklagan, ham ehtiyojlari tufayli paydo bo‘ladigan jamiki insoniy illatlardan forig‘ qilgan kishilar insoni komil bo‘lganlar. Tasavvufiy aqidaga ko‘ra, komil insonlar pirovardida, shubhasiz Alloh vasliga musharraf bo‘ladilar, ruhan Tangri bilan birlashib ketadilar”. [7.14] Tasavvufning mana shu g‘oyalari bugungi yosh avlod tarbiyasida juda katta salmoqli o‘rin egallaydi.

Ma‘lum bo‘lishicha, garchi kubraviylik tariqatining asl markazi Xorazmda vujudga kelgan bo‘lsada, uning bir qator shaxobchalari Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida tarqalgan. Jumladan, Huroson va Damashqda shayx S. Hamaviy; S. Boharziy Buxoro shahrida kubraviya tariqatini keng yoyish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Huroson, Hamadon va Rumda Majididdin Bag‘dodiy hamda Najmiddin Roziy; Raziyuddin Aliyi Lolo esa G‘azna shahrida ushbu ta‘limotni tarqatishga o‘z xissalarini qo‘shishgan.

Shuni ta‘kidlash joizki, Najmiddin Kubro ta‘limotida nafs ammorani qalbiy hastaliklarga sabab bo‘ladigan, kishini turli-tuman keraksiz mashg‘ulotlar bilan band qilib, asosiy maqsaddan uzolashtiruvchi illat, deb qaraladi. Bunday nafsga kuch bag‘ishlovchi yomon axloq hamda hayvoniy istaklarni daf qilish uchun “Alloh” lafzini zikr qilishga chaqiradi va bunga zikri mufrid deyiladi. Jumladan, hazrat Shayxi Valitarosh nafs tarbiyasiga qattiq e‘tibor qaratgan. Xojagon Nashbandiya tariqatida ham asosan zikri xufiya, ya‘ni yashirin yo‘l bilan Alloh lafzini zikr etish ulug‘ ibodat darajasiga ko‘tarilgan.

Tarixdan bizga ma‘lumki, Markaziy Osiyo hududida juda ko‘plab tasavvuf tariqatlari mavjud bo‘lgan. Shulardan yassaviya, qodiriya, kubraviya, xojagon naqshbandiyalarning tariqatlari el orasida juda mashhur bo‘lib, bularning qiyosiy tahlilida o‘xshashlik hamda farqli jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Shayx Najmiddin Kubro asos solgan tariqat mamlakatimizdagi barcha tariqatlar, xususan naqshbandiyaga ham o‘zining samarali ta‘sirini ko‘rsatgan.

Komil insonlar barcha insonlarni sevishi, ayniqsa g‘ariblar, muxtojlar, bechora-miskinlar, xizmatida bo‘lish, har doim Allohning birligi va borligini unutmasligi singari so‘fiylik aqidalariga ega bo‘lishlari lozimligi to‘g‘risidagi bosh g‘oyani anglamas ekanmiz, o‘tmishda o‘tgan ulug‘ zotlar, anbiyo va avliyolar ta‘limotlarining mohiyati va bugungi kundagi ularning ahamiyatini qadriga yeta olmaymiz. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yashab o‘tgan mutasavvif Aziziddin Nasafiy “Komil inson” risolasida quyidagilarni yozadi: “... Jumla mavjudot odamzotga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas, jumla odamzod komil inson tufayli (sharafli)dir. Mavjudot ichra komil insondan ko‘ra, ulug‘rok va donoroq narsa yo‘q, chunki komil insonligi pastdan eng yuqorigacha martabalaridagi mavjudotning xulosasi va qaymog‘idir va farishtalar, ruxoniy mavjudotlar va Arshu Kursi, samovotu kavokib (yulduzlar) hammasi Komil inson xizmatidadirlar va hamisha Komil inson tegrasini (atrofini) tavof qilurlar va Komil inson ishlarini bajo keltirurlar. Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy yurt sifatlarining ham mazharidir” [8.7-9]. Ya‘ni, buyuk mutafakkir Aziziddin Nasafiy Olamdagi barcha ilmlar, u hoh zohiriy bo‘lsin, hoh botiniy bo‘lsin komil inson sharofatidan mavjud ekanligini ta‘kidlaydi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Shayx Najmiddin Kubro aytadi: qalb ko'zi ravshan, qalb qulog'i esa eshitadigan bo'lishi uchun, eng avvalo inson qalbi tirik bo'lishi lozim. Insonning nafs hukmronlikni qo'lga oladigan bo'lsa, qalb o'ladi. Qalbning o'lishi esa butun tana a'zolarining halokatidan ham dahshatliroqdir.

Bugungi globalashgan davrda inson ongi va qalbi uchun keskin kurash ketayotgan bir vaqtda tasavvuf ta'limotining ilg'or va bunyodkor g'oyalarini tadqiq etish hamda ularni jamiyatga tadbiq etish biz ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat va vazifani yuklaydi. Sobiq mustabid tizim mafkurasi hukmronlik qilgan davrda tasavvuf ta'limotiga faqatgina biryoqlama, yengil-yelpi baho berish ustuvor bo'lgan bo'lsa, davlatimiz rahbarining bugungi kundagi ushbu sohaga ko'rsatayotgan alohida e'tiborlari sababli O'zbekistonning bir qancha viloyatlarida din peshvolarining, aziz-avliyolarning ilmiy-falsafiy merosi hamda ularning ta'limotlarini mukammal o'rganib, targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shayx Najmiddin Kubroning boy ma'naviy merosi tizimida inson kategoriyasini o'rganish jahoniy ta'limotga aylanib ulgurgan bo'lib, u bugungi yosh avlod dunyoqarashi hamda ma'naviyatiga salbiy ta'sir qilayotgan turli-tuman yot oqimlarning vayronkor qarashlariga qarshi tura oladigan yuksak ma'rifat yo'lini ko'rsata oladigan ezgu g'oya, deb aytish mumkin.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Жилий Абдулкарим. Инсони комил. – Миср, 1390 х.й., 2-жилд. – Б. 71-78.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевга Имом Бухорий зиёратгоҳининг янги кўриниши тақдим этилгандаги нутқидан: <https://president.uz/uz/lists/view/4288> (15.04.2021).
3. Шайх М. Содиқ М. Юсуф. Тасаввуф ҳақ. тасаввур. – Т.: “Ҳилол-нашр” нашриёти, 2022. – Б. 38.
4. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. “Тасаввуф сирлари”. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2000. – Б. 4.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” – “Ўзбекистон”, 2009. – Б. 278.
6. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Маънавият”, 1999. – Б. 183-185.
7. Олим, Султонмурод . Буюк Нақшбандия. Кеча, бугун, эртага. //“Фан ва турмуш” журнали, 1993 йил, № 5-6-сон. – Б.14.
8. Насафий, Азизиддин. Комил инсон китоби. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2021. – Б. 7-9.



**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).